
Reflection of the status of women in medieval fergana valley society in historical sources

Yuldashev Saidanvarbek Bakhromjon o'g'li
bahromzoda_turkzod@mail.ru
Associate Professor, PhD,
Fergana State University

Annotation *Based on historical sources and scholarly literature, this article examines the role and status of women in the socio-political life of the Fergana Valley during the Early Middle Ages. Particular attention is given to the queens of the Fergana state in the 640s and to the influence of women on political processes during the period of the Arab conquest. The study highlights the significance of women in governance and their contribution to the social and political development of the region.*

Keywords *Fergana, Arab Caliphate, Ashina Shuni, Ton Bahadur, Kibi, Alyaosen, Khumin, Malika Khatun, Xuanzang, Nasr ibn Sayyar, Nilan*

Kirishtarixiy manbalarda Farg'ona vodiysining o'rta asrlar jamiyatidagi ayollar mavqeining aks etishi

Yuldashev Saidanvarbek Baxromjon o'g'li
bahromzoda_turkzod@mail.ru
Dotsent, PhD,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya *Maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning o'rni va mavqei tarixi yoritilgan. Shuningdek, VII asrning 40-yillaridagi Farg'ona davlati malikalari, arablar bosqini davridagi siyosiy jarayonlarda ayollarning ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar *Farg'ona, Arab xalifaligi, Ashina shuni, To'n Baxodur, Kibi, Alyaosen, Xumin, Malika xotun, Syuan Szyan, Nasr ibn Sayyor, Nilan*

Отражение положения женщин в обществе ферганской долины средневековья в исторических источниках

Юлдашев Саиданварбек Бахромжон угли
bahromzoda_turkzod@mail.ru
Доцент, PhD,
Ферганский государственный университет,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *В статье на основе исторических источников и научной литературы освещается история положения и роли женщин в общественно-политической жизни Ферганской долины в раннем Средневековье. Особое внимание уделяется деятельности правительниц Ферганского государства в 40-х годах VII века, а также влиянию женщин на политические процессы в период арабского завоевания. Исследование раскрывает значение женщин в управлении государством и их участие в общественно-политической жизни региона.*

Ключевые слова Фергана, Арабский халифат, Ашина Шуни, Тон Бахадур, Киби, Аляосэнь, Хуминь, Малика-хатун, Сюань Цзан, Наср ибн Сайяр, Нилан

Kirish

Markaziy Osiyo tarixida Farg'ona vodiysi qadimdan siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri sifatida muhim o'rin egallagan. Ushbu hudud Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalardan biri bo'lib, turli xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Farg'ona vodiysining ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda jamiyatning turli qatlamlari bilan bir qatorda ayollarning tutgan o'rne va mavqeini tadqiq etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlar, madaniy taraqqiyot va siyosiy jarayonlarda ham muhim rol o'ynagan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ilk o'rta asrlarda Farg'ona hududida hukmronlik qilgan sulolalar va siyosiy tuzilmalar faoliyatida ayollar muayyan mavqega ega bo'lgan. Xitoy yilnomalari, arab-fors tarixiy asarlari hamda mahalliy manbalarda Farg'ona malikalarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ta'siri va xalqaro munosabatlardagi o'rne haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, VII–VIII asrlarda Arab xalifaligining Movarounnahr hududlariga kirib kelishi davrida yuz bergan siyosiy voqealarda ayollarning faol ishtiroki kuzatiladi.

Bugungi kunda gender tarixi va ayollar tarixini o'rganish jahon tarixshunosligining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Farg'ona vodiysi tarixida ayollarning ijtimoiy mavqei, huquqiy holati va siyosiy ta'sirini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish nafaqat mintaqa tarixini chuqurroq anglash, balki o'rta asrlar jamiyatining ijtimoiy tuzilishini kompleks yoritish imkonini beradi.

Ilk o'rta asrlar Farg'ona vodiysi tarixining siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarning mavqei masalasi kam o'rganilgan jihatlaridan biri

hisoblanadi. Bu masalaga doir ma'lumotlar xitoy, sug'd va arab manbalarida bizgacha yetib kelgan. Ushbu manbalarda keltirilgan ma'lumotlar siyosiy va ijtimoiy hayotga doir materiallardan iborat.

Adabiyotlar tahlili va Metodlar

Tarixshunoslikda ilk o'rta asrlarda ayollarning jamiyatning o'rne tarixini o'rgangan olimlar qatoriga A.Ataxodjeyev (2012), M. Xotamova (2014), M. Is'hoqov (1992), O. Smirnova (1970) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Farg'ona vodiysining eftaliylar va Turk xoqonligi tarixiga oid ular tomonidan yozilgan maqolalar hamda ko'plab asarlarda siyosiy masalar qatorida ijtimoiy muammolar ham yoritilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar qatorida ayollarning jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'rne ham qisqa malumotlar asosida bayon etilgan. Ammo yuqoridagi tadqiqotchilarning asarlari aynan shu muammoga qaratilmagani sababli, ularda faqat manbalardagi ma'lumotlarni keltirish bilan cheklanishgan. Ma'lumotlar tahlili uchramaydi.

Natijalar va Muhokama

Farg'ona tarixining V-X asrlar davriga oid dastlabki asar "Suyshu" (Suy sulolasi tarixi) asari bo'lib, unda Farg'ona to'g'risida muhim ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Suy va Tang imperiyalari Turk xoqonligi bilan jiddiy munosabatda bo'lganligi sababli asarda turklarga oid ma'lumotlar salmoqli o'rin tutadi (Xo'jayev, 2013). Asarning yana bir alohida diqqatga molik tomoni, unda xitoy manbalari orasi birinchi marta Farg'ona hukmdori saroyida ayollarning mavqei tasvirlanadi. Shuningdek, ushbu manbada Farg'ona davlati hukmdori, uning poytaxti va boshqa shunga o'xshash muhim ma'lumotlar uchraydi. Masalan: "Farg'ona davlatining poytaxti Pomir (Sungling)ning g'arbida 50 li narida joylashgan bo'lib, u qadimda Giashiyeu deb atalar edi.

Hukmdorning familiyasi Jabg'u (Chjav'u), ismi Alchi (Alichi). Poytaxt devori aylanmasiga 4 li (2,304 km) keladi. Askarlarining soni bir necha ming kishidan iborat. Hukmdor oltin qo'chqor shaklidagi taxtda o'tiradi. Hukmdorning xotini oltin toj taqadi. Bu yerda qizil kum, oltin, temir ko'p" (Xo'jayev, 2013). Suy sulolasi tarixiga oid manbada keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak undagi ma'lumotlar Farg'onaning shimoliy qismida hukmronlik qilgan turkiy sulolaga oiddir. Chunki oltin qo'chqor yoki arxar G'arbiy turk xoqonligining ramzi sanalgan (Tabariy, 1989). Turk-sug'd dunyosida ayollar doimo ardoqlangan. Shuning uchun Shimoliy Farg'ona hukmdori saroyida malika hukmdor bilan teng mavqeda bo'lgan. Manbada keltirilgan malikaning ismi qayd etilmagan. Bu odatiy xolat bo'lib, ilk o'rta asr tarixiy manbalarida uchraydigan *katbonu* – malikalar ismlar bilan emas Malika xotun, Malika shaklida qayd etilgan.

Arab manbalarida G'urak va Devashtich boshchiligidagi sug'diylar qo'zg'oloni vaqtida Farg'ona hukmdori Alutarning onasi Malika to'g'risida, Nasr ibn Sayyorning Farg'onaga qilgan yurishlarida vaqtida vodiyni idora qilgan Nilanning onasi Xotun to'g'risida muhim ma'lumotlar uchraydi (Tabariy, 1987).

Sug'diylar tomonidan ko'tarilgan qo'zg'olon qatnashchilari o'zaro kelishmovchiliklar natijasida, ular ikki guruhga ajralib ketadilar. 10 ming kishilik G'urak tarafdorlari Samarqandda qoldi. Ikkinchi guruh Ishtixon hokimi Korzanch, uning jiyani Chalanch boshchiligida hamda Kashshin, Boyorqat va Sobit kabi aslzodalar hamrohligida Xo'jand orqali Farg'onaga o'tishni maqsad qiladilar. Sug'diylar arablar bilan muzokaralarda Alutarning elchi bo'lishini hamda o'z shaharlaridan birida ularni vaqtincha himoya qilib turishlarni so'rab maktub yo'lladilar. Ammo Alutarning onasi sug'diylarni vodiya kiritilishiga qarshi chiqadi (Tabariy, 1987). Demak, Alutar yosh taxtga o'tirgan va boshqaruv amalda uning onasi qo'lida bo'lgan. Alutarning arablarga qarshi janglarda ishtirok etganligi hisobga olsak sug'diylar qo'zg'oloni

mahalida ancha ulg'aygan lekin baribir davlatni boshqarishda onasining ta'siri yuqoriligini ko'zga tashlanadi. Shu sababli qo'zg'olonchilarga yordam masalasida Farg'ona podshosining onasi qarorlarni qabul qilgan. Bu shundan dalolat beradiki ilk o'rta asrlarda Farg'onaning siyosiy hayotida ayollarning mavqei juda yuqori bo'lgan.

Xurosonga Nasr ibn Sayyor noib etib tayinlangandan keyin, uning dastlabki ishi Movarounnahrning amalda mustaqil bo'lgan hududlarini qaytadan bo'ysundirish bo'ldi. Chunki, xalifalikning sharqiy chegarasi bo'lgan Farg'onada Movarounnahrning boshqa hududlaridan farqli ravishda islom dinining mavqei mustahkam emas edi. Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, arablar Farg'onaga kirib kelgan davrdan to VIII asr oxirigacha bo'lgan vaqt davomida ham Farg'ona hukmdorlari islom dinini qabul qilmadi. Farg'ona hukmdorlarining islom dinini qabul qilmaganligi bu yerda arablarning ta'siri yuqori bo'lmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli Nasr ibn Sayyor Xurosonda o'z mavqeini mustahkamlab olgach, Choch va Farg'ona hududlariga harbiy yurish tashkillashtiradi. Ibn al-Asirda keltirilishicha, Nasr ibn Sayyor farg'onaliklarga hujum qiladi va minglab farg'onaliklarni asir oladi. Ammo bu Nasr ibn Sayyorning Farg'onaga qilgan asosiy yurishi emas edi. Chunki, Nasr asosiy e'tiborni Chochdagi arablarga qarshi to'plangan kuchlarga qaratayotgan edi. Ehtimol Nasr Farg'onaning chegara hududlariga bosqinchilik yurishini uyushtirib ortga qaytgandir. Sababi manbalarda Nasrning hujumi paytida Farg'ona hukmdori yoki uning vorisi bilan to'qnashganligi qayd etilmagan (Ibnu'l Esir, 1986).

Nasrning Farg'onaga qilgan navbatdagi yurishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda arab qo'shinlari Quva shahrigacha yetib borishadi. Farg'ona hukmdorining vorisi Nilan (Balaz) bilan bo'lgan bir necha janglarda arablar g'alaba qozonadi. Farg'onaliklar Nasrga sulh tuzishni taklif qilishadi. Bunga javoban Nasr ularga tinchlik sulhini yuboradi. "Tarixi Tabariy"

va "Al-Komil fit-Tarix" kabi manbalarda Nasrning Farg'onaga bu yurishi batafsil tasvirlangan. Jumladan, farg'onaliklar Nasrning kelishini oldindan bilib, otlari va oziq-ovqatlarni yoqib yubordilar. Nasr Farg'ona hokimining valiahdiga qarshi yurish qilib, uni bir qal'ada qamal qiladi. Valiahd musulmonlarni g'aflatda qoldirib, to'satdan hujum qiladi va hayvonlarni qo'lga kiritadi. Nasr esa shundan keyin Temim o'g'illarini Muhammad al-Musanna boshchiligida bir guruh jangchilar bilan jo'natadi. Farg'onaliklar musulmonlarning otlarini o'lja olishgan edi. Musulmonlar qo'ldan boy berilgan otlarining bir qismini o'zlariga qaytarib olgandan so'ng, farg'onaliklarga qarshi hujumga o'tadi va ularni mag'lubiyatga uchratdilar. Arablar Farg'ona hukmdori vorisiga yordam bergan dehqonni qatl etadilar (Ibnu'l Esir, 1986). Dehqonning o'g'li bilan birgalikda ba'zi kishilarni asir oladilar. Nasr dehqonning o'g'lini ham qatl etishni buyuradi. Keyinchalik Sulayman b. Suluni maktub bilan sulh tuzishga Farg'ona hokimi huzuriga jo'natadi. Farg'ona hokimi xazinalarni ko'rish uchun Sulaymonni xazina qo'yilgan joyga yuborgan. Ayni shu voqealarda ham Farg'ona podshosi Nilanning onasi siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi.

Farg'ona hokimi Sulaymon orqali sulh tuzish taklifi to'g'risida jo'natilgan Nasrning maktubini qabul etganligini bildirib, o'zining eng yaqin yordamchisi bo'lgan onasini Sulaymon bilan birgalikda jo'natadi. Malika (ayol) Nasr huzuriga kelgach, Nasr u bilan suhbatlashadi (Ibnu'l Esir, 1986).

Xotun shunday der edi: "Olti narsa egasi bo'lmagan hukmdor hech qanday hukmdor emasdir:

- O'zida bo'lgan narsalarni hukmdorning amriga topshirgan va hukmdorini muhokama qilib, nasihatiga quloq soladigan bir vazir;
- Ishtahasi bo'lmagan vaqtda ham hukmdorini ishtahasini uyg'ota oladigan narsalar topa oladigan vazir;
- G'amgin va xuzun holatda yoniga kirganda butun g'amlarni tarqata oladigan bir xotun (malika);

- Qo'rquv vaqtida (onida) sig'inilishi mumkin, dushmanga qarshi qo'yila oladigan bir qal'a (Xotun bular bilan yaxshi zotli otlarni nazarda tutgan);
- Jang qilgan vaqtida xiyonatdan (sinishi va kesmaydigan bo'lishidan) qo'rqmaydigan bir qilich;
- Yer yuzining qayeriga borsangiz ham hayotini davom ettira oladigan zahira (oziq-ovqat).

Keyinchalik Temim b. Nasr bir qancha odami bilan keladi. Xotun: "Bu kim?" deya so'radi, u yerdagilar: "Bu Xurosonning mard yigiti Temim b. Nasrdir" deb javob beradi. Xotun buni bilgach: "Unda na kattaning buyukligi, na kichikning totliligi (shirinligi) bor", dedi. Keyinchalik Hajjoj b. Qutayba keladi. Xotun bu kelgan shaxsning kimligini so'radi. U yerdagilar kelgan odamning Hajjoj b. Qutayba ekanligini aytdilar. Xotun unga salom berdi va shunday deydi: "Ey Arablar! Sizlar vafosiz odamsiz. Men ko'rgan narsalarni sizlar uchun qulaylashtirib, sizga bo'yin egdirgan Qutaybadir, bu esa uning o'g'li. Uni sendan quyi joyga o'tirg'izmoqdasan; holbuki sen uning o'rniga o'tib o'tirishing kerak" (Ibnu'l Esir, 1986).

Yuqorida manbadan olingan manbadan ko'rinib turibdiki VIII asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan Alutar va uning amakivachchasi, shu bilan birga vorisi ham sanalgan Nilanning davlatni idora etishida ayollar vazirlik darajasidagi mavqega ega bo'lishgan.

Yuqoridagilarning barchasi siyosiy hayotdagi ayollarning nufuzi to'g'risida bo'lsa, endi xitoy va sug'd manbalariga asoslangan holda ayollarning ijtimoiy hayotdagi holati to'g'risida fikr yuritimiz.

Sug'd manbalarida ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo ijtimoiy hayotida ayollarning mavqei qaday bo'lganligi borasida ko'plab faktik materiallar bizgacha yetib kelgan. Ulardan eng asosiysi Nov 3 va Nov 4 hujjatlari bo'lib, hujjatlarda ilk o'rta asrlarda O'zbekiston xalqlarining oila-nikoh shu bilan bog'liq mulkchilik va boshqa ijtimoiy munosabatlar keltirilgan. Nov 3 hujjatida keltirilgan sug'd

ayoli va turk yigitining nikoh shartnomasi ilk o'rta asrlarda nikoh masalasi qanday bo'lganligi to'g'risidagi qimmatli manbadir. Turklar va sug'dlar Farg'onada hamda O'rta Osiyoning turli viloyatlarida istiqomat qilgan. Ularning ijtimoiy hayot tarzi bir-biridan keskin farq qilmagan va turmush tarzi bir-biriga o'xshash bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak Farg'onada ham oila-nikoh va boshqa ijtimoiy munosabatlar Nov 3 yuridik hujjatida keltirilgan holatdan keskin farq qilmagan. Ayollar va erkaklarning oiladagi mavqelari teng bo'lgan (Ishoqov, 1992).

Garchi bevosita V-X asrlar tarixiga oid bo'lmasa-da, lekin ilk o'rta asrlar arafasidagi Farg'ona vodiysi to'g'risida ma'lumot beruvchi xitoy manbasi "Jinshu"dir (Jin sulolalari tarixi). Ushbu manbada ilk o'rta asrlar arafasida Farg'onadagi ijtimoiy hayot, nikox, savdo-sotiq masalalariga doir ma'lumotlar keltirilgan. Arablar bosqiniga vadiyning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermaganligi hisobga oladigan bo'lsak, ushbu manbada keltirilgan ma'lumotlar orqali islomgacha bo'lgan davrdagi Farg'onaning ijtimoiy hayotini qiyosiy o'rganishimiz mumkin.

"Jinshu"da Farg'onaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir quyidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin: Maxalliy xalq chukur ko'zli, sersoch, urf-odatlar bo'yicha [yigitlari]

uylanishdan oldin bo'lajak kelinga taqish uchun sovg'a sifatida yurak shaklidagi ikki ko'zli tilla uzuk, bilakuzuk yuboradi. Shuning bilan birga [bo'lajak kelinga] 3 nafar xizmatkor qiz yuborib, sinab ko'riladi. Zaif erkakning uylanish taklifi rad etiladi. Nikoxsiz tug'ilgan bolaning onasi naftratga maxkum etiladi. Birovlar otiga minib, yiqilib o'lgan odamning javobgarligi ot egasiga yuklanadi. [Mahalliy xalq] savdo ishlariga puxta, o'z xaqqini qo'ldan boy bermaydi.

Xulosa

Manbada keltirilgan ushbu faktlar orqali ilk o'rta asrlarda aniqrog'i arablar kirib kelgungacha bo'lgan davrda ijtimoiy hayotning o'ziga xos tomonlari va unda ayollarning o'rni masalalariga bir muncha aniqlik kiritiladi. Ularda keltirilgan ma'lumotlar orqali arablar bosqinidan so'ng vadiyda yuz bergan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni qiyosiy tahlil qilishimiz va jamiyatdagi o'zgarishlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelganligiga aniqlik kiritamiz.

Xulosa qilib aytganda ilk o'rta asrlarda Farg'onaning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollar mavqei ancha yuqori bo'lgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan davlat boshqaruvidagi ayollarning mavqei shunchaki tasodif bo'lmasdan balki, ijtimoiy hayotda ayollarga bo'lgan munosabatning natijasi edi deya olishimiz mumkin.

References:

1. Ataxodjayev, A. (2012). Farg'ona podshosi Alutarning ilk o'rta asrlar tarixidagi o'rni. In *Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda: Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari* (p. 148). Farg'ona.
2. Врыкина, G. A., & Gorbunova, N. G. (1999). Fergana. In B. A. Рыбаков (Ed.), *Srednyaya Aziya i Dalniy Vostok v epoxu srednevekoviya* (p. 380). Nauka.
3. Ebu Cafer Muhammed bin Cerir ut-Taberi. (1991). *Tarix-i Taberi* (F. Gurtunca, Trans., Vol. 4). Sağlam Yayınevi.
4. El-Belâzurî, A. b. Y. (2013). *Futuh-ul-Buldan* (M. Fayda, Trans.). Siyer Yayinlari.
5. Freyman, A. A. (1962). *Sogdiyskiye dokumenty s gory Mug* (Vyp. 1: Opisanie, publikatsii i issledovaniye dokumentov s gory Mug). IVL.
6. Ibn al-Asir. (2006). *Al-Kamil fi-t-Ta'rix* (*Polnyy svod istorii*) (P. G. Bulgakov, Trans.; Sh. S. Kamoliddin, Ed.). Uzbekistan.

7. Ibnu'l Esir. (1986). *Islam tarihi. El Kamil Fi't Tarih Tercumesi* (Y. Apaydin, Trans., Vol. 5). Türkiyat Matbaacilik ve Neşriyat.
8. Ishoqov, M. M. (1992). *Unutilgan podsholikdan xatlar*. Fan.
9. Istoriya at-Tabari. (1987). (V. I. Belyayev, Trans.; O. G. Bolshakov & A. B. Xalidov, Eds.). Fan.
10. Livshis, V. A. (1962). *Sogdiyskiye dokumenty s gory Mug* (Vyp. 2: Yuridicheskiye dokumenty i pisma). IVL.
11. Smirnova, O. I. (1970). *Ocherki iz istorii Sogda*. Nauka.
12. The History of al-Tabari. (1985). (J. A. Williams, Trans., Vol. 27). State University of New York Press.
13. The History of al-Tabari. (1989). (C. Hillenbrand, Trans., Vol. 26). State University of New York Press.
14. Xo'jayev, A. (2013). *Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar (Qadimiy va ilk o'rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar)*. Farg'ona.
15. Xotamova, M. (2014). Farg'onada turkiy sulola. In "*Farg'ona vodiysi yangi tadqiqotlarda*" mavzusidagi III respublika ilmiy anjumani materiallari (p. 85). Farg'ona.
16. سۇيىنامە. (2013). «24 تارىخ» تىكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجان خەلق نەشرىياتى.
17. جىننامە. (2013). «24 تارىخ» تىكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجان خەلق نەشرىياتى.
18. ۋېينامە. (2013). «24 تارىخ» تىكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجان خەلق نەشرىياتى.